



TURGUNOVA Aziza,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
aziza.turgunova.88@mail.ru*

ISLOM DINIDA KEKSALIKNING MAQOMI: TAJRIBA VA TARBIYA METODLARIDAN FOYDALANISH

USE OF EXPERIENCE AND EDUCATION METHODS OF THE ELDERLY IN ISLAM

СТАТУС ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В ИСЛАМЕ: ПРИМЕНЕНИЕ ИХ ОПЫТА И МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ

Annotatsiya: Maqolada islom dinida keksalarga munosabat, yoshi ulug'larga hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularning boy hayotiy tajribalari, odob-axloqi, hikmatli so'zlari, purmano nasihatlarini, o'gitlariga amal qilish, yashab o'tgan ibratli hayot yo'li avlodlar vorisligi asosida avlodlar avlodga diniy qadriyat darajasida uzatilib kelinayotgan ananalar, qadriyatlarga amal qilish, ularning nufuzi, yoshlar tarbiyasi va talimidagi masuliyati masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Keks avlod, islom dini, hadislar, pedagogika, hayotiy tajriba, jamiyat, madaniyat, qadriyat, ta'lim tizimi, odob-axloq.

Аннотация. Статья посвящена исследованию отношения к пожилым людям в исламе. В ней рассматривается важность проявления уважения к старшему поколению, ценность их богатого жизненного опыта, мудрости и наставлений. Особое внимание уделяется роли пожилых людей в воспитании и образовании молодежи, их влиянию на формирование нравственных ценностей и сохранение традиций. В статье анализируется авторитет старших и их ответственность за

передачу культурного наследия подрастающим поколениям.

Ключевые слова: Старшее поколение, ислам, хадисы, педагогика, жизненный опыт, общество, культура, ценности, система образования, нравы, пример, пример.

Annotation. This article examines the esteemed position of the elderly in Islam. It explores the profound respect accorded to elders, emphasizing the value of their rich life experiences, wisdom, and guidance. The article analyzes how these principles are reflected in Islamic traditions, emphasizing the role of elders in transmitting values, upholding cultural heritage, and nurturing younger generations.

Keywords: Older generation, Islam, hadiths, pedagogy, life experience, society, culture, value, education system, manners.

КИРИШ

Tarixdan ma'lumki, har qanday urug', qabila va mamlakatda keksalarga munosabat, ularning nufuzi, yoshlar tarbiyasi va ta'limidagi mas'uliyati o'sha davlatning diniy e'tiqodi, urf odatlari, qadriyatlariga bog'liq bo'lgan. Zamonlar osha insonlarning qon-qoniga singib ketgan, avlodlar vorisligi asosida avlodlar avlodga diniy qadriyat darajasida uzatilib kelinayotgan yoshi ulug'larga hurmat-ehtirom ko'rsatish, ulug'lash ularning hikmatli so'zlari, purma'no nasihatlarini, o'gitlariga amal qilish, ularning boy hayotiy tajribalari, odob-axloqi, yashab o'tgan ibratli hayot yo'li jamiyat barqarorligini ta'minlashda asosiy tarbiya manbai hisoblanadi.

Jamiyatda o'z namunali hayotiy tajribasi, diniy qadriyati, nazariy ilmnining sirlarini egallagan keks avlodning ibрати, namuna va tarbiya manbalari asosida yoshlarni vatanparvar, axloqan pok, ajdodlar an'anasiga sodiq, tashabbuskor, sabrmatonatli, shirinso'z, halol va sog'lom e'tiqodga ega insonlar etib tarbiyalashda ijobiy samaraga erishish mumkin. Sharq xalqlarida keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish qadimdan ma'naviy hayotimizning tom ma'noda ajralmas qismiga aylangan. Keksalarni e'zozlash, ularning sha'ni va qadr-qimmatini yanada ulug'lash islom dinida qadrlanib kelingan.

Abdurahmon Qoya o'zining «Islom axloqi» kitobida shunday yozadi: «Islom axloqi... necha-necha asrlar mobaynida shakllangan,

qancha-qancha nasllar sinovidan o'tib, o'zining hayotiyiligini, hamma zamonlar va avlodlar uchun muvofiqligini, kishilik jamiyati manfaatlariga mosligini, insoniyat kamoliga, ma'naviyat taraqqiyotiga xizmat qilishini amalda tasdiqlagan, shu tufayli davrlaru ellar e'zozini qozonib, zavol bilmay yashab kelayotgan o'lmas bir ta'limot, umumbashariy hayot dasturi, ijtimoiy faoliyatning betakror qoidalari... »[1].

ASOSIY QISM

Arab hikmatlarining birida: «Uch narsa kishi aqlini peshlaydi: biri olimlar va keksalar bilan suhbat, ikkinchisi hayotiy tajriba, uchinchisi chidam va sabot bilan intilishdir» deyilgan. Islom dinida keksalar bilan munosabatda ularga nisbatan hurmat-ehtirom ko'rsatish ta'kidlanadi. Muhammad (s.a.v.) «Musulmon keksa kishini ikrom qilish Alloh taoloni ulug'lash (ta'zim qilish)dandir» [3]. Yoki boshqa bir joyda shunday buyuradilar: «Har bir kishi keksa yoshda bo'lgan shaxsning maqomi va fazilatini yoshiga qarab bilsa va uni hurmat-ehtirom qilsa, Alloh taolo uni oxiratdan qo'rqish va xavotirlanishdan omonda saqlaydi» [2] deyiladi. Sa'd ibn Muoz (r.a.) aytadi: Muhammad (s.a.v.) «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga Tubo¹ nasib bo'lib, Alloh taolo uning umrini ham ziyoda qiladi» [9] deydi.

Keksalariga hurmat ko'rsatish xususida Ibn Abbos (r.a.) rivoyat qilindi: Nabiy (s.a.v.) shunday rivoyat qilganlar «Qaysi yosh kishi keksani ikrom qilsa, u yosh kishiga Alloh taolo keksaning yoshiga yetganida uni ikrom qiladigan kishini taqdir qiladi» (Termiziy rivoyati). Ulamolarimiz ushbu hadisning sharhida keksalarni hurmat qilgan kishining umri uzayib, u ham keksalik yoshiga yetish sharafiga muyassar bo'ladi deyishadi.

Anas (r.a.)dan rivoyat qilinishicha, Makka fathi kuni Abu Bakr (r.a.) Muhammad (s.a.v.) ning huzurlariga o'z otalarini ko'tarib olib keladi. Shunda Muhammad (s.a.v.) «Kexsa odamni ovora qilmay, o'zimiz uyiga borgan bo'lar edik» deb marhamat qiladilar. Umar ibn Xattob esa bir uyning oldidan o'tib ketayotsalar, bir keksa ko'zi ojiz kishi tilanchilik qilib turgan ekan. Uning qo'lidani ohista ushlab so'radilar:

- Qaysi ahli kitobdansen?
- Yahudiymen, dedi.
- Tilanchilikka nima majbur qildi?
- Jizya, muhtojlik va yoshim.

Umar (r.a.) uning qo'lidani tutib uylariga ketdilar va ul-bul narsalar hadya qildilar. So'ng xazinabonni chaqirib, unga aytdilar «Manaviga va shu kabilarga ehtirom qil. Xudo haqqi bularga insof qilmabmiz. Yoshligida jizyasini olibmizku, qariligida xorlab qo'yibmiz. Qur'oni karimda «Albatta, sadaqalarni faqat faqirlar, miskinlarga...» (Tavba, 60) deyilgan. Faqirlar – musulmonlar, bu esa ahli kitob miskinlaridan» deb, uni va u kabilarni jizyadan ozod qildilar. Qur'oni karim va hadisi sharifda keksalarga mehr-oqibat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilgan.

Keksaliklarga g'amxo'rlik qilish, maslahat va o'gitlariga amal qilish xususida Abdulloh ibn Busrdan rivoyat qilinadi: «Bir arobiy: «Ey Allohning Rasuli, odamlarning yaxshisi kim?» dedi. «Umri uzun, amali go'zal bo'lgan odam» dedilar.

Ushbu mazmunda Termiziydan rivoyat qilingan hadisda «Odamlarning eng yaxshisi kim?» deya so'ralgan savolga Nabiy salallohu alayhi vasallam ushbu qisqa va balog'atli «Umri uzun va amali go'zal bo'lgan odam» deb javob bergan. Demak, uzoq umr ko'rish odamlarning yaxshisi bo'lish uchun omil bo'lar ekan[8].

O'sha uzoq umr egasi odamlarning yaxshisi bo'lishi uchun qo'yiladigan shart – amali go'zal bo'lishi ekan[8].

Yana bir hadisda Ibn Abbos (r.a.) naql qilindi: Rasululloh (s.a.v.) shunday dedilar: «Yaxshilik (boshqa rivoyatida: baraka) kattalaringiz bilan birgadir». Ibn Hibbon rivoyati.

Imom al-Buxoriyning «al-Adab al-mufrad» kitobining I-bobi «Alloh taoloning «va insonga ota-onasiga yaxshilik qilishni tavsiya qildik» degan qavli haqida» deb nomlangani ham musulmon odobi va madaniyatida yoshi katta insonlarga munosabat oliy qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Allomaning ushbu asarida «Kattalar fazli», «Kattalarga hurmat ko'rsatish», «Gap va savol berishni kattalar boshlashi» nomli uch bobga ajratadi.

Alloma ushbu asarida Bahz ibn Hakim (r.a.) aytadi: «Rasululloh (s.a.v.)dan: «Ey Rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo'ladi? – deb so'radim «Onangga», dedilar. Men shu savolimni uch marta qaytarsam ham, Rasululloh «Onangga» deyavardilar. To'rtinchi marta so'raganimda: «Otangga va yaqin qarindoshlaringga dedilar»[8]. Ushbu hadislar zamirida ajdodlar tajribasida sinalgan «Ota rozi – Xudo rozi» naqli ham keksa avlodni hurmat qilish an'anasini shakllantirishda ayricha xizmat qiladi. Binobarin, keksa avlodni

¹ Tubo – jannatdagi bir daraxtning nomi.

hurmat qilish, ehtiyojlarini ta'minlash o'zbek oilalarining betakror fazilatlariga aylangan.

Imom Buxoriyning yana bir shox asari «al-Jome' as-sahih»da «Ota-onasiga yaxshilik qilgan kishining duosi qabul bo'lishi haqida» degan alohida bob ajratib, u yerda g'orda qamalib qolib, bajargan xayrli amalini vasila qilgan uch kishi haqidagi hadisni keltiradi. Ulardan biri o'zining xayrli amali sifatida ota-onasiga ko'rsatgan sadoqati, hurmati va mehr-muruvvatini shunday hikoya qiladi:

«Allohim! Mening yoshi ulug', keksa ota-onam, yosh go'daklarim bor edi. Ular uchun chorva boqardim. Huzurlariga qaytgach, sut sog'ar, so'ng bolalarimdan oldin ota-onamga ichirishdan boshlar edim. Bir kuni o't-o'lan izlab uzoqlashib ketib, kech tushguncha kela olmadim. Kelsam, ikkovlari uxlab qolishgan ekan. Odatdagidek, sutni sog'dim va sut kosani olib kelib, ularning bosh tomonlarida turdim. Ularni uyqudan uyg'otgim kelmadi, ulardan oldin (ichirishni) bolalardan boshlashni ham istamadim. Bolalar ochlikdan oyog'im ostida chirqirashar edi. Men ham, ular ham shu alfozda tong ottirdik. Agar meni shu ishni sening vajhingni istab qilgan, deb bilsang, bizga najot ber». Shunda Alloh tirqish ochdi va osmonni ko'rdilar [5]. Hikoyada keltirib o'tilganidek, hadislariga ko'ra keksalarni ulug'lash, qadriga yetish, marhamat ko'rsatish, shu bilan birga yoshlar ham ularni eshitishi, boy hayotiy tajribalari asosida o'z ta'lim-tarbiyasi, yurish-turishini nazorat qilishi talab qilinadi.

Islom g'oyalarini targ'ib etuvchi tasavvuf ilmining namoyandalari (Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy) ijodida «Ruh» va «Ishq», «Nafs» va «Axloq» tayanch nuqtalar hisoblanadi. Masalan, Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-axloqiy jihatdan o'z qimmatini yo'qotmagan quyidagi she'rini keltirish o'rinli bo'ladi:

«Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o'taro,
Inonmagil molingga, bir kun qo'ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh qayon ketti, fikr qil,
To'rt oyoqlik cho'bin ot, bir kun senga yetaro.
Ahli ayol qarindosh, hech kim bo'lmaydur
yo'ldosh,

Mardona bo'l, g'arib bosh, umring yeldek
o'taro...» [4].

Shuningdek, I.Usmonov, K.Shermuhamedov, Sh.Jo'rayev va b.larning «Islomda keksalar qadri» kitobida «Islom dinida keksalar millati, dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar ularning barchasiga bab-barovar hurmat-ehtirom ko'rsatilishi» alohida ta'kidlanadi [10].

Bolaning ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarini shakllantirishda oilaning roli muhim hisoblanib, oila muhitida bobolar o'giti, momolar pand-nasihatlari orqali singdirib boriladi. Bu qadriyatlar bolaning ilk yoshlik yillaridan alla, ertak, maqollar, topishmoqlar va diniy e'tiqod, an'analar orqali shakllantiriladi. Shu bilan birga ota-ona ibrat, mehr-muhabbati, katta avlodning barcha xatti-harakati ibrat namunasi orqali amalga oshiriladi. Bu o'ziga xos ta'limiy-tarbiyaviy jarayon.

Mazkur jarayonda oilaning kattalari – bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug'lar ham bevosita va bilvosita ishtirok etadi. Ularning bir-biri bilan aloqasi, mehri, «silayi rahm»ga amal qilishi misolida yoshlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi. Muhammad (s.a.v.) hadislarida ham musulmonlar «silayi rahm»ga chaqirilib, qarindoshlik aloqalarini uzganlarni oxiratda og'ir sinovlar kutayotganligi haqida ogohlantirilgan. Shu bilan birga, yoshi ulug' qarindoshlar bilan bog'lovchi qarindoshlik aloqalarining savobi bundanda ulug'roq bo'lishi ta'kidlab o'tilgan.

Abu Bakr (r.a.)dan rivoyat qilinadi. Muhammad (s.a.v.) «Alloh xohlagan gunohlarni mag'firat qiladi. Faqat ota-onaga oq bo'lishni kechirmaydi. Uning jazosi egasiga o'limidan oldin tirikligida tezgina yetadi» deyдилar (Imom Bayhakiy «Sha'bul iymon»da rivoyat qiladi).

Bu hadisdan ota-onaga oq bo'lishning jazosi bu dunyodayoq tezda yetishi va Allohning huzurida bundanda qattiq azob kutib turishi ma'lum bo'ladi. Ya'ni u bu dunyoda ham va oxiratda ham azoblanadi [7].

Luqmoni Hakim aytadi: «Ey, o'g'lim, yoshi ulug' insonlar bilan maslahatlashib turgin. O'zingdan yoshi kichik bo'lgan kishilar bilan ham maslahatlashishdan uyalma» degan.

Zaynul Obidin yoshi ulug'larning haqlari haqida bunday degan:

Keksalarni yoshlari sababli ulug'lash;
Islomni bizdan oldingi bilgan va taniganlari
uchun hurmat qilish;
Ular bilan tortishmaslik;
Ularga tik qaramaslik;
Ularning oldilarida yurmaslik;
Ularni johil, ya'ni ilmsiz deb hisoblamaslik;
Bazi hollarda johillik qilsalar, unga sabr qilish;
Islom haqqi hurmati keksalarni hurmat qilish
yoshlar zimmasidagi haqlaridandir.

Shuningdek, ustoz tanlashda yoshi ulug'ligiga urg'u berish pedagogikada «ustoz-shogird» an'analariga mutanosibli inson keksalik bosqichiga yetib borgani sayin bilimi

mukammallashgani, nafaqat ilmiy, balki hayotiy tajriba orttirgani hamda tolibi ilmni ilm olishida eng yaxshi uslub va yo'lni ko'rsata olishi ta'kidlanadi.

Islom manbalarida komil insonni shakllantirish formulasi 5-8 boshlang'ich ta'lim va Qur'on yodlash davri, 8-20 yosh ilm olish, kasb tanlash, 20-30 yosh ilmni takomillashtirish va tajriba orttirish davri, 30-60 yosh ta'lim va oila barqarorligini ta'minlash, 60 yoshdan yuqorisi Ilohga yuzlanish davri sifatida qaralgan.

Ilm Allohning mulki va ulug' ne'mati bo'lib, o'zi saralab olgan bandalariga in'om qilinadi. Shunday ekan, Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida tolibga uch turdagi kishilarning duolari bilan ilm hosil bo'ladi. Bular: ustoz, ota-onasi (keksa avlod) va o'zining kechalari shikastalik bilan qilgan ibodatlar, duolari natijasida ilm hosil bo'ladi deyiladi. Allomalarimiz bilimli bo'lish, ilm sirlarini egallashni «Igna bilan quduq qazib suv chiqarganchalik chekilgan mashaqqatga o'xshaydi» deganlar. Shunday ekan, ilm sirlarini egallash ko'plab mehnat, sabru chidam, uyqusiz tunlarni talab qiladigan, mashaqqat va qiyinchiliklardan hosil bo'ladigan zulmatni yoritadigan nurdir. Shuning uchun manbalarda ilm talabida bo'lish nafl ibodatlar qilishdan afzaldir deb keltiriladi.

XULOSA

«Qariyalar – xonadonlarimizning fayzi va farishtasi» degan maqol va hikmatli so'zlarimizda qanday chuqur ma'no bor. Haqiqatan ham, qaysi xonadonda nuroniy otaxon yoki onaxon bo'lsa, bu oilada albatta fayz-u baraka, farovonlik, ahillik bo'lishini yaxshi bilamiz. Shu bois bugun, turli sohalarida erishayotgan yutuqlarimizda otanalarimiz, mo'tabar keksalarimizning unutilmas va ulkan xizmati bor. Sahih hadislardan birida «kimki kichiklarga rahm-u shafqatli, kattalarga izzat-ikromli bo'lmasa u bizlardan emasdir» [6] deyilgan.

Qadimda bobo va momolarimiz dinimiz ta'limotlariga, urf-odat va qadriyatlarimizga amal qilib mazkur ko'rsatmalarni go'zal tarzda amalga oshirgan va barchaga o'rnak bo'lgan. O'rta asrlarda musulmon oilalarida islom nuqtai nazaridan inson tarbiyasi uch bosqichga bo'linib, uning har biriga o'ziga xos uslub tanlangan. Birinchi bosqichi – ilm olish; keyingi bosqich - oila parvarishi; so'ngi bosqich - toat-iboat shakli hisoblangan. Bolalikda ilm olish, o'rta yoshda oila barqarorligini ta'minlash, keksalikda tasavvufiy vazifalarga ko'ra

zikr va ibodat bilan band bo'lish orqali amalga oshirilgan.

Keksa avlod vakillarining yoshlar tarbiyasi va ta'limidagi boy hayotiy bilimlari, diniy-pedagogik tajribalarini tahlil qilar ekanmiz, oilalardagi umuminsoniy fazilatlar, axloqiy meyorlar, urf-odat va qadriyatlarga amal qilish; milliylik, jamoaviylik, ijodiylik, kengfe'llik, funksional vazifalarni ta'minlash; bola tarbiyasidagi sharqona tarbiyaning metod, usul va vositalarini qo'llash; ustoz-shogird munosabatlarini rivojlantirish, avlodlar o'rtasidagi do'stona hamkorlik va ijobiy munosabatlarni ta'minlashda asosiy ishtirokchi va boshqaruvchi ekanligini kuzatamiz.

Keksalarning Qur'on oyatlari va hadislardan keltirayotgan ibratli so'zlari, odob-axloq, tarbiya, milliy fazilatlar haqidagi hikmatlari hayot maktabi orqali yoshlar ongi, tafakkuri, tarbiyasi, odob-axloqi, bilimni rivojlantiradi. Keksalar o'rganadi, to'playdi, tarqatadi va yana o'zi ham oladi. Keksalik avlodlar vorisiyligini ta'minlaydi, yangidan-yangi shaklga aylanib boradi. Keksalarning tajribasi va tarbiya resurlaridan samarali foydalangan, anglay bilgan, shunga ergashgan insongina o'zining taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanlay oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmon Qoya. Islom axloqi. – Toshkent: Movarounnahr, 1997. www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Abu Dovud Sijistoniy. Sunani Abu Dovud. – J. 7. – Bayrut: Dor ar-Risala al-Olamiya, 2009. – B. 212.
3. Ahmad ibn Husayn al-Bayhaqi. Jome'li Shuab al-imon. – J:13. – Riyoz: Maktaba ar-Rushd, 2003. – B. 360.
4. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1991. – B. 221.
5. Imom al-Buxoriy. "Al-Jome' as-sahih». Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimas. T.: Qomuslar Bosh tahririyati 1991
6. Ming bir hadis. – T. II. / Arabchadan Abdulaziz Mansurov tarjimas. – T.: O'zbek maskani, 1991. – 86 b.
7. Muhammad Oshiq Ilohiy. Birrul volidayn va huququhuma (Ota-onaga yaxshilik qilish va ularning huquqlari) Toshkent: «Qamar media», 2021 – 83 b.
8. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Keksalarni e'zozlash. Hilol nashr, 2021. – B. 39
9. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Odoblar xazinasi. Imom al-Buxoriy "Al-Adab al-mufrad" kitobining sharhi. 1- juz. 11-bob – Toshkent: Hilol-Nashr, 2023. – 115 b.
10. Usmonov I., Shermuhamedov K., Jo'rayev Sh. va b. Islomda keksalar qadri. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2015. – 104 b.